

SHE'RIY SAN'ATLAR
ПОЭТИЧЕСКОЕ ИСКУССТВО
SHE'RIY SAN'ATLAR

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna, FarDU o‘qituvchisi

shahloxonkarimjonova@gmail.com

Sulaymonova Shahina, FarDU talabasi

Annotatsiya. Ming yillik tarixga ega bo’lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she’r ahlining diqqat markazida bo’lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida haqida so’z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e’tibor qaratilgan. Ushbu maqolada she’riy san’atlar badiiy asarda ifodalangan g’oyalarning hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: she’riy san’atlar, tashbeh, istiora, tazod, talmeh, tajohil ul-orif, tajnis, ta’did.

Аннотация: В нашей классической литературе, имеющей тысячелетнюю историю, вопрос художественности всегда находился в центре внимания поэтов. Когда говорят о потенциале того или иного творца, внимание акцентируется не на том, что он описывает, а главным образом на том, как он это описывает. В данной статье показано, что поэтическое искусство служит тому, чтобы сделать идеи, выраженные в художественном произведении, более яркими и впечатляющими, ярче воплотить лирические и эпические символы, обеспечить словесную изысканность, музыкальность, привлекательность стихов, строф и строф.

Ключевые слова: поэтическое искусство, ташбе, метафора, тазад, тальме, таджил уль-ариф, таджнис, тадид.

Abstract: In our classic literature, which has a thousand-year history, the issue of artistry has always been the focus of attention of poets. When talking about the potential of this or that artist, attention is focused not on what he describes, but

mainly on how he describes it. This article shows that poetic arts serve to make the ideas expressed in a work of art more vivid and impressive, embody lyrical and epic symbols more vividly, and provide verbal delicacy, musicality, and attractiveness of verses, stanzas, and stanzas.

Key words: poetic arts, tashbeh, metaphor, tazad, talmeh, tajhil ul-arif, tajnis, tadir.

Adabiyot san'at turi sifatida insonga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir go'zallik vositasida amalga oshadi. Mazkur go'zallik esa badiiy adabiyotda so'z orqali namoyon bo'ladi. Biz badiiy adabiyot namunasi bilan tanishib o'zimiz uchun shu paytgacha bilgan yoki his etgan narsalarimizdan boshqacharoq bir holatga duch kelamiz, yangilikka duch kelamiz. U oldindan ma'lum bo'limgani uchun bizda ichki bir qiziqish, ajablanish, hayratni uyg'otadi. Bular badiiy asarlarning ijodkorlari bo'lgan adib va shoirlarning mahorati tufayli sodir bo'ladi. Ularning bir qismi bevosita she'riy san'atlar bilan bog'liq.

She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimmi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'liqligi sanaladi.

She'riy san'atlarni qo'llashda me'yor masalasi ham muhimdir. Ya'ni she'rda haddan tashqari san'at qo'llash maqbul bo'limganidek, ularga e'tiborsizlik bilan qarab, asardagi g'oyalarni, fikrlarni badiiy bezaklarsiz ifodalash ham she'r qimmatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Shuning uchun ham buyuk allomalarimiz o'z asarlarida she'riy san'atlarni o'rni va ma'yori bilan qo'llaganlar. Mavlono Atoyi va Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur, Mashrab va Ogahiy, Nodira va Uvaysiy, Furqat va Muqimiy kabi yetuk shoirlarning g'oyaviy-badiiy, barkamol asarlari fikrimiz dalilidir.

She'riy san'atlar quyidagilar:tashbeh, tazod, istiora, talmeh, tanosib, tajhil ul-orif, ta'did, husni ta'lil, tajnis.

Tashbeh hozirgi adabiyotshunoslikda o'xshatish deb yuritiladi. U shunday san'atki, unda so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa va hodisa, xususiyatlar o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashlik, sifat va belgidagi umumiylilik

qiyoslanadi. Adiblar tashbehdan o’z g’oyalari, fikr va istaklarini badiiy ta’sirchan ifodalash uchun foydalaniladi.

Istiora arabcha so’z bo’lib, “qarz olish” ma’nosida keladi. Istiora ikki narsa o’rtasidagi o’xshashlikka asoslanadi. Tashbehdan farqli ravishda, o’xshatish vositasi va o’xshatish sababi bo’lmaydi.

Tilar el mansabi oliv va lekin,

Atoyi sarvi ozodingg’ a banda. Ushbu baytda istiora “sarvi ozod” birikmasi orqali aks etgan, u yor qaddini, qomatini nazarda tutadi. Mazkur ifoda yor qaddining go’zalligini, o’ziga yarashib turishini to’la va ta’sirchan ifoda etadi.

Tazod san’ati narsa-hodisalarini zidlash orqali hosil qilinadi.

Manga sensiz tirilgandin o’lim yuz qatla ortuqdur,

Bu so’zda haq bilur, ko’nglum tilim birla muvofiqtur. Bu yerda “tirilmoq” va “o’lmoq” so’zlari o’zaro zid qo’yilgan.

Talmeh arabcha so’z bo’lib, ma’nosи “chaqmoq chaqishi”, “bir nazar tashlash” demakdir. Badiiy san’at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqeа, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir.

Tajohil ul-orif mohiyatini bilib bilmaslikka olish tashkil etadi. Adib o’zi bilgan narsani yana boshqalardan so’rab turgandek bo’ladi.

Husni ta’lil fikrni asoslash san’atidir. Ammo bu asoslash real, hayotiy bo’lmasdan faqat shoirona asoslash bo’ladi.

Tajnisning ma’nosи “biror narsa bilan o’xhash bo’lmoq”dir. Tajnis she’r baytida ma’no jihatidan har xil, ammo shakl bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki so’zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta’sirchan ifodalash san’atidir.

Ta’did to’g’risida ma’lumotlarni klassik poetika haqidagi manbalarning ko’plarida uchratish mumkin. U fikriy rivojni, ketma-ketlikni, tadrijiylikni anglatadi.

Dardga to’lding, g’amga to’lding, telba bo’lding,

Ishq dardini so’rsang hargiz darmoni yo’q.

Birinchi misraga e’tibor berilsa, xuddi birinchidan, ikkinchidan, uchinchidan tarzidagi sanoq ohangi seziladi.

Adabiyotimiz tarixi shundan dalolat beradiki, she’riy san’atlar shoir badiiy salohiyatini ko’z-ko’z qilish, uning xilma-xil san’atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko’lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g’oyalarni jilolantirish san’atkorligi ifodasi bo’lib kelgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adamboeva, N. (2023). ASPECTS OF AXIOLOGICAL LINGUISTIC ANALYSIS. *Collection of scientific papers «SCIENTIA»*, (March 10, 2023; Valencia, Spain), 163-166.
2. Каримджонова, И. (2023). О ‘ZBEK TILIDA KAUZATIV FE’LLARNING YASALISH USULLARI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(8).
2. Ravshanjonovna, K. S. (2023). Stylistic Features of Causative Verbs in the Uzbek Language. *Jurnal Multidisiplin Madani*, 3(4), 879-884.
3. Karimjonova, S. R. (2021). Cognitive Aspects Of The Causative Verb To Have In Modern English. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 2(11), 141-145.
4. Karimjonova, S. R. (2022). The linguistic functions of intonation components. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 601-606.
5. Makhmudova, N. R., & Ergasheva, N. D. (2018). COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING. *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY*, 104-105.
6. Ravshanjonovna, K. S. (2021). O’ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SIFATDOSHLARNING STRUKTURAVIYFUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (6), 153-158.
7. Ravshanjonovna, K. S. (2023). The Meaning of Causative Verbs. *Jurnal Multidisiplin Madani*, 3(1), 14-18.

8. Ravshanovna, G. N. (2019). TRAINING THE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATION ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION SYSTEM. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
9. Xusanboyevna, A. S. (2020, June). LINGUOPRAGMATICS AND THE MAIN CATEGORIES OF LINGUOPRAGMATICS. In *Archive of Conferences* (Vol. 2, No. 2, pp. 40-42).
10. Satvoldievna, U. D., & Sharabidinovna, O. U. (2020). Conceptual problems of simultaneous interpretation. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 36-38.